

TERGOV HARAKATLARI VA TEZKOR-QIDIRUV TADBIRLARINI UNIFIKATSIYALASHTIRISH MODELLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Habibullayev Dalerbek Baxtiyor o'g'li,

Toshkent davlat yuridik universiteti

Klinik ta'limni muvofiqlashtirish bo'limi

Yuridik klinikalar uslubchisi

ORCID: 0009-0004-2513-458X

e-mail: habibullayevdalerbek@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada tergov harakatlari va tezkor-qidiruv tadbirlarini unifikatsiyalashtirishning nazariy-huquqiy mazmuni, chegaralari va zamonaviy modellari tizimli tahlil qilinadi. Unifikatsiya oddiy normativ birlashtirish emas, balki funksional jihatdan teng bilish vositalariga qonuniylik, zaruriylik, subsidiarlik, mutanosiblik, sud nazorati va dalillar maqbulligining yagona standartlarini tatbiq etishga qaratilgan ko'p bosqichli jarayon sifatida talqin etiladi. Germaniya, Fransiya, Qozog'iston va Ukraina qonunchiligi, Yevropa inson huquqlari sudi amaliyoti hamda BMT va Yevropa Kengashi standartlari qiyosiy o'rganilib, to'liq integratsiya, reguliyatorli konvergensiya, protsessual transformatsiya va gibridd modellarining afzalliklari hamda cheklovlari ochib beriladi. Muallif tomonidan huquqlarga aralashuv intensivligi, tadbirning funksional vazifasi va natijaning daliliy oqibatlarini bir vaqtda hisobga oluvchi unifikatsiya modeli taklif etiladi. Ushbu model asosida O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida "Nooshkora tergov harakatlari" nomli alohida bobni shakllantirish, tergov sudyasi nazoratini kengaytirish, kechiktirib bo'lmaydigan holatlar uchun amalda mavjud retrospektiv sud nazorati mexanizmini nooshkora tezkor-qidiruv tadbirlariga nisbatan kengaytirish va uning yagona tartibini belgilash, raqamli dalillarning uzluksiz saqlanish zanjirini belgilash, tezkor ma'lumotlarning dalilga aylanish tartibini differentsiatsiyalash va yashirin choralar

yakunlangach manfaatdor shaxsni xabardor qilish institutini bosqichma-bosqich joriy etish yuzasidan takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit soʻzlar: tergov harakati, tezkor-qidiruv tadbiri, nooshkora tergov harakati, unifikatsiya, konvergensiya, protsessual transformatsiya, sud nazorati, mutanosiblik, subsidiarlik, dalillar maqbulligi, shaxsiy hayot daxlsizligi.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ МОДЕЛЕЙ УНИФИКАЦИИ СЛЕДСТВЕННЫХ ДЕЙСТВИЙ И ОПЕРАТИВНО-РОЗЫСКНЫХ МЕРОПРИЯТИЙ

Хабибуллаев Далербек Бахтиёр угли

Ташкентский государственный юридический университет
Отдел координации клинического юридического образования
Методист юридических клиник

ORCID: 0009-0004-2513-458X

e-mail: habibullayevdalerbek@gmail.com

Аннотация. В статье проводится системный анализ теоретико-правового содержания, пределов и современных моделей унификации следственных действий и оперативно-розыскных мероприятий. Унификация рассматривается не как простое нормативное объединение, а как многоуровневый процесс, направленный на применение единых стандартов законности, необходимости, subsidiarности, соразмерности, судебного контроля и допустимости доказательств к функционально эквивалентным средствам познавательной деятельности. На основе сравнительного изучения законодательства Германии, Франции, Казахстана и Украины, практики Европейского суда по правам человека, а также стандартов Организации Объединённых Наций и Совета Европы раскрываются преимущества и ограничения моделей полной интеграции, регуляторной конвергенции, процессуальной трансформации и

гибридной модели. Автором предлагается модель унификации, одновременно учитывающая интенсивность вмешательства в права человека, функциональное назначение мероприятия и доказательственные последствия полученного результата. На основе данной модели разработаны предложения по формированию в Уголовно-процессуальном кодексе Республики Узбекистан отдельной главы «Негласные следственные действия», расширению контроля следственного судьи, распространению действующего механизма последующего судебного контроля в неотложных случаях на негласные оперативно-розыскные мероприятия и установлению единого порядка его осуществления, обеспечению непрерывной цепочки хранения цифровых доказательств, дифференциации порядка преобразования оперативной информации в доказательства, а также поэтапному внедрению института уведомления заинтересованного лица после завершения негласных мероприятий.

Ключевые слова: следственное действие, оперативно-розыскное мероприятие, негласное следственное действие, унификация, конвергенция, процессуальная трансформация, судебный контроль, соразмерность, субсидиарность, допустимость доказательств, неприкосновенность частной жизни.

THEORETICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING MODELS FOR THE UNIFICATION OF INVESTIGATIVE ACTIONS AND OPERATIONAL-SEARCH MEASURES

Habibullaev Dalerbek Bakhtiyor ugli

Tashkent State University of Law
Department for the Coordination of Clinical Legal Education
Legal Clinics Methodologist

ORCID: 0009-0004-2513-458X

e-mail: habibullayevdalerbek@gmail.com

Abstract. The article provides a systematic analysis of the theoretical and legal substance, limits, and contemporary models of unifying investigative actions and operational-search measures. Unification is conceptualized not as a mere consolidation of legal provisions, but as a multi-level process aimed at applying uniform standards of legality, necessity, subsidiarity, proportionality, judicial oversight, and admissibility of evidence to functionally equivalent means of obtaining information. Through a comparative examination of the legislation of Germany, France, Kazakhstan, and Ukraine, the case law of the European Court of Human Rights, and the standards developed by the United Nations and the Council of Europe, the article identifies the advantages and limitations of the full-integration, regulatory-convergence, procedural-transformation, and hybrid models. The author proposes a unification model that simultaneously takes into account the intensity of interference with individual rights, the functional purpose of the measure, and the evidentiary consequences of its results. On the basis of this model, the article formulates proposals to introduce a separate chapter entitled “Covert Investigative Actions” into the Criminal Procedure Code of the Republic of Uzbekistan; expand the supervisory powers of the investigating judge; extend the existing mechanism of ex post judicial review applicable in urgent circumstances to covert operational-search measures and establish a uniform procedure for such review; ensure an uninterrupted chain of custody for digital evidence; differentiate the procedure for transforming operational information into admissible evidence; and gradually introduce a mechanism for notifying affected persons after the completion of covert measures.

Keywords: investigative action, operational-search measure, covert investigative action, unification, convergence, procedural transformation, judicial oversight, proportionality, subsidiarity, admissibility of evidence, right to privacy.

Kirish

Jinoyatchilikning texnologik va tashkiliy murakkablashuvi jinoyatlarni aniqlash hamda isbotlash vositalari o'rtasidagi an'anaviy chegaralarni tobora nisbiylashtirmoqda. Bir tomondan, jinoyat-protsessual qonunchilik tergov harakatlarini protsessual shakl, ishtirokchilar huquqlari, mustahkamlash tartibi va dalillar maqbulligi bilan bog'laydi. Ikkinchi tomondan, tezkor-qidiruv faoliyati konspiratsiya, tezkorlik, tashkiliy moslashuvchanlik va maxsus usullardan foydalanish bilan tavsiflanadi. Amaliyotda esa ikkala faoliyat turi ham bir xil yakuniy maqsadga – jinoyat hodisasi to'g'risidagi ishonchli axborotni aniqlash, tekshirish va undan protsessual qaror qabul qilishda foydalanishga xizmat qiladi. Shu sababli tergov harakatlari va tezkor-qidiruv tadbirlari o'rtasidagi munosabatni faqat “protsessual” va “noprotsessual” faoliyat qarama-qarshiligi orqali izohlash zamonaviy jinoyat-protsessual ehtiyojlarni to'liq aks ettirmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 27-moddasi erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqini, 31-moddasi esa shaxsiy yozishmalar, telefon orqali so'zlashuvlar, pochta, elektron va boshqa xabarlar sir saqlanishi huquqini kafolatlaydi [1]. Mazkur konstitutsiyaviy qoidalar tezkor kuzatuv, telefonlar va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitib turish, ular orqali uzatiladigan axborotni olish, abonentlar yoki abonent qurilmalari o'rtasidagi bog'lanishlar to'g'risida axborot olish yoki tezkor eksperiment singari tadbirlarning nomi va idoraviy mansubligidan qat'i nazar, ularni yagona huquqiy mezonlar asosida baholashni talab qiladi. Jinoyat-protsessual kodeks shaxsning konstitutsiyaviy huquqlariga jiddiy aralashuvchi ayrim tergov harakatlari uchun sud ruxsatini nazarda tutadi [2]. “Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida”gi Qonun esa tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish va ularning natijalaridan foydalanishning maxsus tartibini belgilaydi [3]. Biroq bu ikki normativ massiv o'rtasida qo'llaniladigan tushunchalar, sanksiyalash mezonlari, nazorat shakllari va natijalarni dalil sifatida tekshirish usullarining to'liq uyg'unlashmaganligi huquqni qo'llashda noaniqliklar tug'diradi.

Muammoning dolzarbligi tezkor-qidiruv faoliyati natijalarini dalil sifatida tan olish masalasida ayniqsa yaqqol ko‘rinadi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining dalillar maqbulligiga oid tushuntirishlariga ko‘ra, dalil vakolatli subyekt tomonidan, qonunda belgilangan manbadan va tegishli protsessual tartibga rioya etilgan holda olinishi shart, qonunchilikda belgilangan tartibda rasmiylashtirilmagan tezkor-qidiruv natijalari maqbul dalil sifatida baholanmaydi [4]. Demak, tezkor ma‘lumotning “foydaliligi” uning daliliy kuchini avtomatik ravishda ta‘minlamaydi. Bunda ma‘lumotning kelib chiqish manbai, uni olish usulining qonuniyligi, yaxlitligi, qayta tekshirish imkoniyati, himoya tomoni tomonidan e’tiroz bildirish imkoniyati va sudning mustaqil bahosi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi tergov harakatlari va tezkor-qidiruv tadbirlarini unifikatsiyalashtirishning nazariy asoslarini shakllantirish, mavjud modellarni tanqidiy baholash hamda O‘zbekiston huquqiy tizimiga mos modelni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotda tizimli, formal-yuridik, qiyosiy-huquqiy, funksional va modellashtirish usullaridan foydalanildi. Ilmiy yangilik, birinchidan, unifikatsiyani barcha tadbirlarni bitta protsessual shaklga mexanik kiritish emas, balki funksional ekvivalentlik va huquqlarga aralashuv xavfi bo‘yicha yagona standartlar o‘rnatish jarayoni sifatida tushuntirishda, ikkinchidan, to‘rt an‘anaviy modelni yagona tizimga joylashtirishda, uchinchidan, O‘zbekiston uchun uch mezonga asoslangan va tadbirlarni uch toifaga ajratuvchi gibril unifikatsiya modeli taklif etishda namoyon bo‘ladi.

Muhokama va natijalar

Huquqiy unifikatsiya atamasi ko‘pincha bir-biriga yaqin bo‘lgan munosabatlarni yagona norma yoki kodeks doirasida tartibga solish sifatida izohlanadi. Biroq jinoyat protsessi va tezkor-qidiruv faoliyati kesishgan sohada bunday tor talqin yetarli emas. Chunki bu yerda birlashtirilishi lozim bo‘lgan obyektlar faqat normalar emas, balki turli tashkiliy subyektlar, qaror qabul qilish tartiblari, axborot rejimlari, maxfiylik darajalari va daliliy oqibatlaridir. Huquqiy model nazariy

konstruksiya bilan normativ yechim o'rtasidagi vositachi sifatida muayyan institutning asosiy elementlari, ularning o'zaro aloqasi va kutilayotgan natijasini ko'rsatishi lozim [5]. Shu nuqtayi nazardan, tergov harakatlari va tezkor-qidiruv tadbirlarini unifikatsiyalashtirish – funksional jihatdan o'xshash bilish vositalariga yagona konstitutsiyaviy va dalillar maqbulligi standartlarini tatbiq etish, ularni sanksiyalash, qayd etish, tekshirish hamda natijalaridan foydalanish mexanizmlarini o'zaro muvofiqlashtirishga qaratilgan tizimli huquqiy jarayondir.

Ushbu ta'rif unifikatsiyani integratsiya, harmonizatsiya va konvergensiya bilan farqlash imkonini beradi. Integratsiya alohida institutlarni yagona normativ tizimga kiritishni anglatadi. Harmonizatsiya turli hujjatlarda saqlanib qolgan normalar o'rtasidagi kolliziyalarni bartaraf etish va umumiy yo'nalishni belgilashga xizmat qiladi. Konvergensiya esa mustaqil tizimlarning bir xil prinsip va standartlarga yaqinlashishini ifodalaydi. Unifikatsiya mazkur jarayonlarning barchasidan foydalanishi mumkin, biroq uning yakuniy mezoni hujjatlarning soni emas, balki funksional jihatdan teng vaziyatlarga teng huquqiy kafolatlarning tatbiq etilishidir. Masalan, turar joyga oshkora tintuv uchun kirish bilan texnik vosita yordamida yashirin kirish shaxsiy hayot va uy-joy daxlsizligiga ta'sir darajasi bo'yicha yaqin bo'lsa, ularga mutlaqo turli nazorat standartlarini qo'llash funksional nomutanosiblikni yuzaga keltiradi.

Unifikatsiyaning birinchi metodologik asosi – funksional ekvivalentlik prinsipidir. Unga ko'ra, tadbirlarning nomi, ularni o'tkazuvchi bo'linma yoki oshkora-nooshkora shakli emas, balki maqsadi, obyekti, shaxs huquqlariga ta'siri va natijasining huquqiy oqibati qiyoslanadi. Agar ikki tadbir bir xil ma'lumotni olishga, bir xil huquq sohasiga aralashishga va o'xshash daliliy va huquqiy oqibatlarni yuzaga keltirishga qodir bo'lsa, ular uchun asoslantirish, ruxsat olish, muddat, qayd etish va sud nazorati bo'yicha yaqin standartlar belgilanishi kerak. Qozog'iston va Ukraina jinoyat-protsessual qonunchiligida nooshkora tergov harakatlarining mustaqil protsessual institut sifatida shakllantirilishi aynan tergov va tezkor usullar o'rtasidagi funksional yaqinlikni tan olish natijasidir [6; 7]. Biroq funksional ekvivalentlik barcha

tadbirlarni bir xillashtirishni anglatmaydi: u teng xavfga teng kafolat, turli xavfga esa differentsiatsiyalashgan kafolat talab qiladi.

Ikkinchi metodologik asos – huquqlarga aralashuvning intensivligi. Shaxsning ochiq manbalardagi ma'lumotlarini yig'ish, ko'chada qisqa muddatli vizual kuzatuv, turar joy ichini texnik vositalar bilan yashirin kuzatish va telekommunikatsiya orqali uzatiladigan axborotni tutib olish bir xil huquqiy xavf tug'dirmaydi. Shu bois qonunchilik tadbirlarni faqat ularning nomi bo'yicha emas, balki aralashuv predmeti, davomiyligi, qamrovi, texnologik imkoniyati va uchinchi shaxslar ma'lumotlarini tasodifiy yig'ish ehtimoli bo'yicha ham tasniflashi lozim. Zamonaviy raqamli kuzatuv an'anaviy fizik kuzatuvga qaraganda shaxsning aloqalari, harakatlari, odatlari va ijtimoiy tarmog'i haqida ancha keng profil yaratishi mumkin. Maxfiy kuzatuvning xavfi faqat ma'lumotni olish lahzasida emas, uni saqlash, tahlil qilish, boshqa bazalar bilan birlashtirish va ikkilamchi maqsadlarda foydalanishda ham yuzaga keladi [8; 9].

Uchinchi asos – subsidiarlik yoki eng kam cheklovchi vosita prinsipidir. Nooshkora va intensiv aralashuv chorasini faqat maqsadga oshkora yoki kamroq cheklovchi usullar bilan erishish imkonsiz yoxud haddan tashqari qiyin bo'lganda qo'llanishi kerak. Bu talab oddiy protsessual formula emas; vakolatli organ sudga aniq faktlar bilan nima uchun muqobil usullar yetarli emasligini ko'rsatishi shart. Subsidiarlik talabining yo'qligi yashirin tadbirni qulay va odatiy tergov vositasiga aylantiradi. Natijada favqulodda xarakterga ega bo'lishi lozim bo'lgan aralashuv amaliyotning standart usuliga aylanib, mutanosiblik prinsipini mazmunsizlantiradi.

To'rtinchi asos – daliliy asimmetriyani bartaraf etishdir. Nooshkora tadbirlar natijasida olingan materiallar ko'pincha asosan ayblov tomoni tasarrufida bo'ladi. Himoya tomoni tadbirning boshlang'ich asoslari, texnik parametrlar, to'liq yozuv yoki kontekst bilan tanishmasligi mumkin. Faqat ayblov uchun qulay qismni ochish dalilning ishonchliligini to'liq tekshirish imkoniyatini cheklaydi va taraflar tengligini cheklaydi. Shu sababli unifikatsiya modeli ma'lumotning to'liq saqlanishi, o'zgartirishlardan himoyalaniishi, kelib chiqish zanjiri hujjatlashtirilishi, maxfiylik tugagach himoya tomoniga yetarli hajmda ochilishi va sud tomonidan qarama-qarshi

tekshirilishini kafolatlashi kerak. Dalillar nazariyasida qonuniylik, ishonchlilik va tekshiriluvchanlik bir-birini to'ldiruvchi mezonlar sifatida qaraladi [10; 11]. Tezkor materialning protsessual maqomini faqat uni taqdim etgan organ qarori bilan belgilash esa mustaqil tekshiruv o'rnini idoraviy ishonch bilan almashtirish xavfini tug'diradi.

Beshinchi asos – texnologik neytrallikdir. Qonunda faqat mavjud qurilma yoki aloqa turining nomini sanab o'tish yangi texnologiyalar paydo bo'lishi bilan bo'shliq yuzaga keltiradi. Masalan, telefon so'zlashuvini tinglash, messenger metama'lumotlarini olish, bulutli saqlash tizimiga kirish, qurilmani masofadan faollashtirish yoki geolokatsiya tarixini tahlil qilish texnik jihatdan turlicha bo'lsa-da, ayrim hollarda bir xil konstitutsiyaviy manfaatlarga ta'sir qiladi. Shu sababli normativ model “qaysi qurilma ishlatilgan?” degan savoldan ko'ra “qanday turdagi ma'lumot olindi, qaysi huquqqa qay darajada aralashildi va qanday xavf yuzaga keldi?” degan savollarga javob berishi lozim. Yevropa sudlari va inson huquqlari institutlarining keyingi yillardagi yondashuvi ham kuzatuvning texnik nomidan ko'ra uning qamrovi, filtrlash mezonlari, mustaqil ruxsat va keyingi nazorat kabi jihatlariga urg'u bermoqda [12].

Nihoyat, unifikatsiya tezkor-qidiruv faoliyatining profilaktik, qidiruv va xavfsizlikka doir mustaqil funksiyalarini inkor etmasligi kerak. Tezkor-qidiruv tadbirlarining barchasi jinoyat ishi doirasida dalil yig'ishga qaratilmagan: bedarak yo'qolgan shaxslarni qidirish, jazodan bo'yin tovlayotgan shaxsni aniqlash, jinoyatning oldini olish yoki xavf to'g'risida dastlabki ma'lumot olish kabi vazifalar mavjud. Shuning uchun to'liq protsessuallashtirish tezkor faoliyatning qonuniy va zarur moslashuvchanligini yo'qotishi mumkin. To'g'ri model jinoyat-protsessual isbotlashga qaratilgan yoki shaxs huquqlariga yuqori darajada aralashuvchi tadbirlarni kuchliroq protsessual rejimga kiritadi, kam xavfli axborot-qidiruv faoliyatini esa maxsus qonun doirasida qoldiradi. Demak, unifikatsiyaning chegarasi faoliyatning tashkiliy nomi bilan emas, uning huquqiy xavfi va daliliy maqsadi bilan belgilanadi.

Jinoyat-protsessual tizimlarni qiyosiy o'rganish tergov harakatlari va nooshkora usullar munosabatini tartibga solishning to'rtta asosiy modelini ajratish imkonini

beradi: to'liq integratsiya, regulyatorli konvergensiya, protsessual transformatsiya va gibrid model. Ushbu tasnif davlatlarni qat'iy guruhlarga ajratishdan ko'ra, ularning qonunchiligida qaysi mexanizm ustunligini aniqlashga xizmat qiladi. Amalda bir tizimda bir necha model elementlari bir vaqtda uchrashi mumkin. Shu sababli modellarni "sof" shakl emas, balki islohot yo'nalishini ko'rsatuvchi ideal-tipik konstruktsiya sifatida baholash maqsadga muvofiq.

To'liq integratsiya modeli nooshkora bilish usullarini tergov harakatlarining bir turi sifatida Jinoyat-protsessual kodeksga kiritadi. Bunda ularni o'tkazish asoslari, vakolatli subyektlar, sud ruxsati, muddat, qayd etish, materiallarni saqlash va dalil sifatida foydalanish qoidalari yagona kodeksda belgilanadi. Germaniya Jinoyat-protsessual kodeksining maxsus usullarga oid §§ 100a–100j hamda 110a–110e normalari integratsiyalashgan yondashuvning muhim namunasi hisoblanadi [13]. Bu tizimda nooshkora usul jinoyat-protsessual maqsadga yo'naltirilganidan boshlab protsessual maqomga ega bo'ladi; natijani keyinchalik "protsessual dalilga aylantirish" uchun mazmunan yangi tergov harakatini o'tkazish talab qilinmaydi.

To'liq integratsiyaning ustunligi normativ yaxlitlikda namoyon bo'ladi. Birinchidan, shaxs huquqlarini cheklovchi barcha tergov vositalari uchun umumiy prinsiplar qo'llanadi. Ikkinchidan, tergovchi va tezkor bo'linma o'rtasidagi vakolatlar protsessual topshiriq hamda nazorat orqali aniqlashtiriladi. Uchinchidan, natijaning daliliy maqomi uni olish bosqichidayoq belgilanadi. To'rtinchidan, himoya tomoni dalilning qonuniyligi yuzasidan jinoyat-protsessual vositalar bilan e'tiroz bildiradi. Bu jihatlar dalillar maqbulligi nazariyasidagi "dastlabki qonuniylik" konsepsiyasiga mos keladi: noqonuniy olingan materialni keyingi rasmiylashtirish orqali huquqiy jihatdan tozalash mumkin emas.

Biroq to'liq integratsiya ortiqcha protsessuallashtirish xavfini ham tug'diradi. Tezkor kiritish, niqoblangan operatsiya, nazorat ostida yetkazib berish yoki xavfning oldini olishga qaratilgan boshqa tezkor choralar har doim odatiy tergov harakatining qat'iy algoritmiga mos kelmaydi. Operatsion vaziyat tez o'zgarishi, ishtirokchilar xavfsizligi va maxfiy hamkorlarning shaxsini himoya qilish talab etilishi mumkin.

Agar kodeks barcha taktik detallarni oshkora va qat'iy belgilasa, tadbirning samaradorligi hamda xavfsizligi pasayadi. Shuning uchun integratsiya modelining maqbul varianti protsessual kafolatlarni kodeksda, maxfiy taktika va texnikani esa qonunga zid bo'lmagan yopiq idoraviy hujjatlarda tartibga solishni nazarda tutishi kerak. Yopiq hujjat huquqni cheklashning mustaqil asosi bo'la olmaydi; u faqat qonunda belgilangan vakolatni texnik jihatdan amalga oshirishi mumkin.

Regulyatorli konvergensiya modeli jinoyat-protsessual va tezkor-qidiruv qonunchiligining tashkiliy mustaqilligini saqlagan holda, ularni yagona konstitutsiyaviy "yadro" atrofiga yaqinlashtiradi. Ushbu yadroga qonuniylik, aniqlik, zaruriylik, subsidiarlik, mutanosiblik, maqsad va muddat bilan cheklanganlik, sud nazorati, ma'lumotlarni minimallashtirish va samarali shikoyat qilish huquqi kiradi. Fransiya tizimida tergov va maxsus usullar yagona Jinoyat-protsessual kodeksning turli bo'limlarida differentsiatsiyalangan holda tartibga solinadi, xususan, uyushgan jinoyatchilikka oid maxsus texnikalar, jumladan infiltratsiya, kuzatuv, telekommunikatsiyani ushlab qolish va texnik ma'lumotlarni olish uchun maxsus shartlar nazarda tutiladi [14]. Fransiya tizimi differentsiatsiyalangan integratsiya va regulyatorli konvergensiya elementlarini o'zida birlashtiruvchi oraliq modelidir.

Konvergensiyaning asosiy afzalligi institutsional inersiyani hisobga olishidir. Alohida tezkor-qidiruv qonunchiligini bekor qilish, barcha organlar tuzilmasini qayta qurish va Jinoyat-protsessual kodeksni tubdan yangilash katta resurs hamda uzoq o'tish davrini talab qiladi. Konvergensiya esa mavjud tizimni saqlagan holda eng muhim kafolatlarni birxillashtirish imkonini beradi. Masalan, shaxsiy hayotga yuqori intensivlikda aralashuvchi tadbirning qaysi qonunda joylashganidan qat'i nazar, sudning ruxsati, aniq muddat va tekshiruv talab qilinadi. Shu bilan birga, tezkor-qidiruv faoliyatining profilaktik va qidiruv funksiyalari alohida qonunda saqlanadi. O'zbekiston sharoitida aynan shu model qisqa va o'rta muddatli islohotlar uchun asos bo'lishi mumkin.

Konvergensiya modelining zaif tomoni esa ikki normativ tizim o'rtasidagi yashirin kolliziyalar saqlanib qolishidir. Agar Jinoyat-protsessual kodeks va tezkor-

qidiruv qonunchiligi bir xil tushunchani turlicha talqin qilsa, sud nazoratining predmeti noaniq bo'lsa yoki tezkor materialni himoya tomoniga ochish tartibi faqat idoraviy qoidalarda belgilansa, umumiy prinsiplar deklarativ bo'lib qoladi. Shu sababli konvergensiya faqat prinsiplarni takrorlash bilan cheklanmasligi, balki norma havolalarining to'liq tizimini yaratishi kerak: qaysi tadbir qaysi shartlarda o'tkaziladi, kim ruxsat beradi, qaysi material sudga taqdim etiladi, natija qachon dalil bo'ladi, maxfiylik qachon bekor qilinadi va qonun buzilishi qanday oqibat tug'diradi – bularning barchasi bevosita qonunda ko'rsatilishi zarur.

Protsessual transformatsiya modeli tezkor-qidiruv faoliyatini mustaqil institut sifatida saqlab, uning natijalarini jinoyat protsessiga kiritish tartibiga urg'u beradi. O'zbekiston qonunchiligida mazkur modelning elementlari mavjud: tezkor-qidiruv materiallari jinoyat ishini qo'zg'atish uchun asos bo'lishi, tergov harakatlariga tayyorgarlik ko'rishda foydalanilishi va JPK talablariga muvofiq tekshirilganidan hamda baholanganidan so'ng dalil sifatida e'tirof etilishi mumkin. Ilmiy adabiyotlarda tezkor-qidiruv natijalarini dalilga aylantirish uchun uning kelib chiqishi, qonuniy olinishi, o'zgarmaganligi va protsessual tekshiriluvchanligi aniqlanishi zarurligi ta'kidlanadi [15; 16].

Gibrid model yuqoridagi uch yondashuvni tadbirlarning funksiyasi va xavf darajasi bo'yicha birlashtiradi. Qozog'iston nooshkora tergov harakatlarini JPK doirasida tartibga solib, tergov sudyasi sanksiyasini va maxsus protsessual rejimni belgilagan. Ukraina JPKning 21-bobida nooshkora tergov (qidiruv) harakatlarini tergov harakatlarining turi sifatida belgilagan, ularning aksariyatini og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatlar bilan cheklagan va tergov sudyasi nazoratini o'rnatgan. Ushbu tajribalar tezkor bo'linmalarining amaliy imkoniyatlarini saqlagan holda, jinoyat ishi doirasidagi yashirin tadbirlarni tartibga solish mumkinligini ko'rsatadi.

Gibrid modelda tadbirlar kamida uch guruhga ajratiladi. Birinchi guruh – an'anaviy tergov harakatiga funksional ekvivalent va shaxs huquqlariga yuqori darajada aralashuvchi tadbirlar: turar joylarni va boshqa joylarni, binolarni, inshootlarni, joyning uchastkalarini, texnik va transport vositalarini tekshirish, pochta,

kuryerlik jo‘natmalari va telegraf xabarlarini nazorat qilish, telefonlar va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan so‘zlashuvlarni eshitib turish, ular orqali uzatiladigan axborotni olish, abonentlar yoki abonent qurilmalari o‘rtasidagi bog‘lanishlar to‘g‘risida axborot olish. Ular Jinoyat-protsessual kodeksda nooshkora tergov harakati sifatida tartibga solinishi va faqat sud ruxsati bilan o‘tkazilishi lozim. Ikkinchi guruh – maxsus operatsion tadbirlar: tezkor kiritish, nazorat ostida yetkazib berish, niqoblangan operatsiya, tezkor eksperiment. Ular maxsus qonunda saqlanishi mumkin, biroq provokatsiyani taqiqlash, sud yoki prokuror nazorati, xavfsizlik va natijalarni protsessual tekshirishning aniq qoidalariga bo‘ysunishi shart. Uchinchi guruh – kam aralashuvchi axborot-qidiruv tadbirlari: so‘rov o‘tkazish, ma‘lumot to‘plash. Tezkor tadbir yuzasidan tuzilgan axborot hujjati o‘z-o‘zicha mustaqil dalil hisoblanmaydi. Tadbir natijasida olingan predmetlar, hujjatlar va elektron ma‘lumotlar esa ularning kelib chiqishi aniqlanib, ko‘zdan kechirilib hamda JPKda belgilangan tartibda ishga qo‘shilgandan keyingina dalil maqomiga ega bo‘lishi mumkin. Konstitutsiyaviy huquqlarga bevosita va yuqori darajada aralashuvchi tadbirlar sud nazoratiga, boshqa maxsus operatsion tadbirlar esa ularning xususiyatiga qarab sud va prokuror nazoratining differentsiatsiyalangan shakllariga bo‘ysundiriladi.

O‘zbekiston huquqiy tizimida tergov harakatlari va tezkor-qidiruv tadbirlarini unifikatsiyalashtirish bir bosqichda to‘liq integratsiya orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiq emas. Amaldagi tizimda tezkor-qidiruv faoliyati jinoyatlarning oldini olish, aniqlash, qidiruv va xavfsizlik vazifalarini ham bajaradi hamda barcha tadbirlarni JPKga ko‘chirish ushbu funksiyalarni isbotlash bilan sun‘iy ravishda tenglashtiradi. Biroq shaxsiy hayot, uy-joy, kommunikatsiyalar va raqamli ma‘lumotlarga aralashuvchi tadbirlarni faqat alohida qonun hamda idoraviy nazorat doirasida qoldirish ham Konstitutsiyaning bevosita amal qiluvchi kafolatlari va zamonaviy xalqaro standartlarga to‘liq mos kelmaydi. Fikrimizcha, gibrid unifikatsiya modeli O‘zbekiston sharoiti uchun eng maqbul variant hisoblanadi.

Mazkur model uchta o‘zaro bog‘liq mezonga asoslanadi. Birinchi mezon – funksional vazifa: tadbir jinoyat ishi bo‘yicha dalil olishga, jinoyatning oldini olishga, shaxsni qidirishga yoki dastlabki axborot yig‘ishga qaratilganmi. Ikkinchi mezon – huquqlarga aralashuv intensivligi: tadbir qaysi konstitutsiyaviy huquqqa, qancha muddat, qanday qamrovda va qanday texnologik chuqurlikda ta’sir qiladi. Uchinchi mezon – daliliy oqibat: natija dalil sifatida ishlatiladimi, boshqa tergov harakatiga asos bo‘ladimi yoki faqat tergovga yo‘nalish beruvchi axborotmi. Ushbu uch mezon birgalikda qo‘llanganda tadbirning nomi yoki idoraviy tasnifi orqali protsessual kafolatlarni chetlab o‘tish imkoniyati kamayadi.

Gibrid modelni joriy etish uchun, birinchi navbatda, O‘zbekiston Respublikasi JPKning umumiy qismida “nooshkora tergov harakati” tushunchasi mustahkamlanishi lozim. Uni “jinoyat ishi bo‘yicha isbotlash uchun ahamiyatli ma’lumotlarni tekshirilayotgan shaxsga oldindan oshkor etmagan holda, qonunda belgilangan asoslar, tartib va muddatlarda, qonunda nazarda tutilgan hollarda tergov sudyasining ajrimi asosida olish, qayd etish va tekshirishga qaratilgan protsessual harakat” sifatida ta’riflash mumkin.

Bundan tashqari, tezkor-qidiruv materiallarini tergov organiga taqdim etishning yagona protsessual shakli ishlab chiqilishi kerak. Mazkur shaklda tadbirning huquqiy asosi va ruxsati, o‘tkazilgan vaqt va joy, vakolatli shaxslar, foydalanilgan texnik vosita turi, olingan materiallar ro‘yxati, asl tashuvchi va nusxalar, raqamli xesh qiymatlari, maxfiy ma’lumotlar toifasi, uchinchi shaxslar ma’lumotini ajratish, maxfiylikni saqlash muddati hamda himoya tomoniga taqdim etish imkoniyati qayd etiladi. Mazkur shaklga zid ravishda taqdim etilgan material, agar buzilish dalilning kelib chiqishi yoki butunligini tekshirishga to‘sqinlik qilsa, nomaqbul dalil deb topilishi lozim.

Xulosalar

O‘tkazilgan tadqiqot tergov harakatlari va tezkor-qidiruv tadbirlarini unifikatsiyalashtirish masalasi alohida protsessual normalarni o‘zaro birlashtirish yoki tezkor-qidiruv tadbirlarini mexanik ravishda jinoyat-protsessual qonunchilikka

ko'chirish bilangina cheklanmasligini ko'rsatdi. Mazkur yo'nalish, eng avvalo, jinoyatlarni aniqlash va isbotlashga xizmat qiluvchi funksional jihatdan o'xshash vositalarga qonuniylik, zaruriylik, subsidiarlik, mutanosiblik, sud nazorati, tekshiriluvchanlik hamda dalillar maqbulligining yagona standartlarini tatbiq etishga qaratilgan tizimli huquqiy jarayon sifatida tushunilishi lozim.

Birinchidan, tergov harakatlari va tezkor-qidiruv tadbirlarini farqlashda ularning nomi, oshkora yoki nooshkora shaklda amalga oshirilishi yoxud qaysi organ vakolatiga kiritilgani hal qiluvchi mezon bo'la olmaydi. Tadbirning funksional vazifasi, shaxsning konstitutsiyaviy huquqlariga aralashuv darajasi, davomiyligi, texnologik imkoniyatlari va undan olingan natijaning daliliy oqibatlari asosiy mezon sifatida baholanishi kerak. Shu ma'noda, funksional jihatdan teng va bir xil huquqiy xavf tug'diruvchi harakatlarga teng protsessual kafolatlar tatbiq etilishi unifikatsiyaning bosh tamoyilini tashkil etadi.

Ikkinchidan, qiyosiy-huquqiy tahlil tergov va nooshkora faoliyatni tartibga solishning to'liq integratsiya, regulyatorli konvergensiya, protsessual transformatsiya hamda gibrid modellarini ajratish imkonini berdi. Ushbu modellarning hech biri barcha huquqiy tizimlar uchun mutlaq va universal yechim hisoblanmaydi. To'liq integratsiya normativ yaxlitlik va shaxs huquqlarini himoya qilishning yuqori darajasini ta'minlasa-da, tezkor-qidiruv faoliyatini ortiqcha protsessual cheklash xavfini yuzaga keltiradi. Protssessual transformatsiya mavjud institutsional tuzilmani saqlab qoladi, biroq u tezkor ma'lumotlarni olishning dastlabki bosqichidagi qonuniylik va sud nazorati muammolarini to'liq bartaraf etmaydi. Regulyatorli konvergensiya esa mazkur ikki yondashuv o'rtasida muvozanatni ta'minlovchi o'tish mexanizmi vazifasini bajarishi mumkin.

Uchinchidan, O'zbekiston Respublikasining amaldagi huquqiy tizimi uchun funksional vazifa, huquqlarga aralashuv intensivligi va daliliy oqibat mezonlariga asoslangan gibrid unifikatsiya modeli eng maqbul yondashuv hisoblanadi. Mazkur model tezkor-qidiruv faoliyatining profilaktik, qidiruv va xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan mustaqil funksiyalarini saqlab qolish bilan birga, jinoyat-protsessual

isbotlashga yoʻnaltirilgan yoki shaxs huquqlariga yuqori darajada aralashuvchi tadbirlarni kuchaytirilgan protsessual rejimga oʻtkazish imkonini beradi.

Toʻrtinchidan, gibrid model doirasida tezkor-qidiruv tadbirlarini uch guruhga ajratish taklif etiladi. Shaxsiy hayot, uy-joy, kommunikatsiyalar va raqamli maʼlumotlar daxlsizligiga yuqori darajada aralashuvchi qaratilgan tadbirlar Jinoyat-protsessual kodeksida nooshkora tergov harakatlari sifatida tartibga solinishi va tergov sudyasining oldindan chiqarilgan ajrimi asosida amalga oshirilishi lozim. Maxsus operatsion tadbirlar tezkor-qidiruv qonunchiligida saqlanishi mumkin, biroq ular provokatsiyani taqiqlash, mutanosiblik, muddat bilan cheklanganlik va mustaqil nazorat talablariga boʻysundirilishi kerak.

Beshinchidan, Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida “Nooshkora tergov harakatlari” deb nomlangan alohida bobni shakllantirish zarur. Unda nooshkora tergov harakatining tushunchasi, turlari, ularni oʻtkazishning moddiy va protsessual asoslari, vakolatli subyektlar, tergov sudyasiga taqdim etiladigan materiallar, ruxsatning amal qilish muddati, tadbirni uzaytirish va tugatish tartibi, kechiktirib boʻlmaydigan holatlardagi retrospektiv sud nazorati, olingan maʼlumotlarni saqlash, yoʻq qilish, oshkor etish hamda ular ustidan shikoyat qilish mexanizmlari batafsil belgilanishi kerak.

REFERENCES:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/docs/6445145> (murojaat sanasi: 04.08.2026).

2. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi: 1994-yil 22-sentabr // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/docs/-111460> (murojaat sanasi: 04.08.2026).

3. O‘zbekiston Respublikasining “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni, 2012-yil 25-dekabr, O‘RQ-344-son // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/docs/-2107763> (murojaat sanasi: 04.08.2026).

4. . O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Dalillar maqbulligiga oid jinoyat-protsessual qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi 2018-yil 24-avgustdagi 24-son qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/docs/-3895986> (murojaat sanasi: 04.08.2026).

5. Turner C. Models of Law // University of Illinois Law Review. 2018. No. 4. P. 1293–1354.

6. Уголовно-процессуальный кодекс Республики Казахстан от 4 июля 2014 года № 231-V ЗПК // ИПС «Әділет». URL: <https://adilet.zan.kz/rus/docs/K1400000231> (дата обращения: 30.07.2026).

7. Кримінальний процесуальний кодекс України від 13 квітня 2012 року № 4651-VI. Глава 21 // Законодавство України. URL: <https://zakon.rada.gov.ua/laws/show/4651-17> (дата звернення: 30.07.2026).

8. Solove D.J. Understanding Privacy. Cambridge, MA: Harvard University Press, 2008. 272 p.

9. Slobogin C. Privacy at Risk: The New Government Surveillance and the Fourth Amendment. Chicago: University of Chicago Press, 2007. 320 p.

10. Ashworth A., Redmayne M. The Criminal Process. 5th ed. Oxford: Oxford University Press, 2019. 536 p.

11. Roberts P., Zuckerman A. Criminal Evidence. 2nd ed. Oxford: Oxford University Press, 2010. 812 p.

12. European Court of Human Rights; European Union Agency for Fundamental Rights. Joint Factsheet: Mass Surveillance. Updated 31 August 2025. Strasbourg, 2025.

13. Strafprozessordnung (StPO) in der Fassung der Bekanntmachung vom 7. April 1987, §§ 100a–100j, 110a–110e // Bundesministerium der Justiz. URL: <https://www.gesetze-im-internet.de/stpo/> (murojaat sanasi: 04.08.2026).

14. Code de procédure pénale français. Articles 706-73–706-106 // Légifrance. URL: https://www.legifrance.gouv.fr/codes/texte_lc/LEGITEXT000006071154 (murojaat sanasi: 04.08.2026).

15. Xaydarov M.M. Dastlabki tergovda tezkor-qidiruv faoliyati natijalaridan foydalanish: yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent, 2023. 55 b.

16. Россинский С.Б., Вытовтов А.Е. Правильное понимание результатов оперативно-розыскной деятельности как ключ к решению проблемы их использования в доказывании по уголовным делам // Lex Russica. 2022. Т. 75. № 1. С. 60–73. DOI: 10.17803/1729-5920.2022.182.1.060-073.